o‘zlashish jarayonidagi fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, eski o‘zbek adabiy tilining muhim leksik qatlamini tashkil etuvchi ko‘plab mavhum va aniq tushunchalar arab tilining aynan g‘ayri solim o‘zaklar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot arab tili morfologiyasi bilan eski o‘zbek leksikasining shakllanishi o‘rtasidagi uzviy aloqani ochib berib, mumtoz matnlarni etimologik va semantik jihatdan chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Olingan natijalar tarixiy tilshunoslik, etimologiya, matnshunoslik hamda mumtoz adabiy merosni talqin qilishga qaratilgan keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Муҳаммад Ризо Огаҳий. Риёз уд-давла. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. №5364//II, 355-бет.

(2). Dankoff R., Kelly J. Compendium of the Turkic Dialects (Dīwān Luyāt at-Turk). Part I. Harvard University Printing Office, 198, p. 416.

(3). Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. Москва, «Восточная литература», РАН, 2001, с. 585.

(4). Wright W.A Grammar of the Arabic Language. 3rd ed. Cambridge University Press, 1967, vol. 1, p. 166.

(5). Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. Тошкент, “Фан”, 1984, 160-бет.

(6). B.lack J., George A., Postgate N.A Concise Dictionary of Akkadian. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2000, p. 480.

(7). Lane E.W. An Arabic-English Lexicon. London: Williams & Norgate, 1863, Book I, Part 4, p. 1756.

(8). Usmanova S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojik-forscha va arabcha so‘zlar. T., 1968.

(9). Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. М., МГИМО, 1959, 414 с.

(10). Ричард Ф. Наследие Ирана (Перев. с англ. В.А.Лившица и Е.В.Зеймаля). М., 1972, с. 185.

(11). Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка (Приложение к персидско-русскому словарю в двух томах под редакцией Ю.А.Рубинчика). М., 1970, с. 806.

(12). Халидов Б.З. Арабские заимствования в современном литературном языке пушту. Дисс. … канд. фил. наук, Л., 1953, с. 195.

Rahmonova Zamira Salohiddinovna (Samarqand viloyati Urgut tumani 90-maktab o‘qituvchisi; zamiraraxmonovaa@gmail.com)

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA SO‘ZLAR BIRIKUVCHANLIGINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Maqola jahon tilshunosligida so‘z birikuvchanligi muammosining tarixiy-nazariy rivojlanishini yoritadi. Bloomfield tasnifiga kiritilgan keyingi o‘zgartirishlar – Ch.Xokketning yadro pozitsiyasiga asoslangan ichki tasnifi, parataksis va gipotaksis tushunchalarining integratsiyasi, shuningdek, terminologiya muammolari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z birikuvchanligi, kollokatsiya, sintagmatika, endotsentrik birikma, ekzotsentrik birikma, gipotaksis, parataksis.*

Рахмонова Замира Салахиддиновна (учитель школы № 90 Ургутского района Самаркандской области; zamiraraxmonovaa@gmail.com)

ИЗУЧЕНИЕ СПРЯЖЕНИЯ СЛОВ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В статье освещается историко-теоретическая разработка проблемы лексики в мировом языкознании. Дальнейшие изменения в классификации Блумфилда-гл. Рассматривается также внутренняя классификация Хокке на основе положения ядра, интеграция понятий паратаксиса и гипотаксиса, а также проблемы терминологии.*

Ключевые слова: *словосочетание, словосочетание, синтагматика, эндоцентрическое соединение, экзоцентрическое соединение, гипотаксис, паратаксис.*

Rakhmonova Zamira Salakhiddinovna (Teacher of School № 90 in the Urghut District of the Samarkand; Regionzamiraraxmonovaa@gmail.com)

STUDY OF WORD CONJUNCTION IN WORLD LINGUISTICS

Annotation. *The article highlights the historical and theoretical development of the problem of vocabulary in world linguistics. Further changes in the Bloomfield classification-chap.The internal classification of Hokke based on the position of the nucleus, the integration of the concepts of parataxis and hypotaxis, as well as the problems of terminology are also considered.*

Keywords: *phrase, collocation, syntagmatics, endocentric compound, exocentric compound, hypotaxis, parataxis.*

Kirish (Introduction). Jahon lingvistikasida asrlar davomida sintagmatik munosabatlar sohasida to'plangan empirik va nazariy bilimlar XX asr boshlarida nazariy sintagmatika, valentlik nazariyasi hamda so'z birikuvchanligi (kollokatsiya) nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga mustahkam asos bo'ldi. Ayniqsa, XX asrning dastlabki o'n yilliklarida so'zlarning birikuvchanlik xususiyati konsepsiyasi sezilarli darajada aniqlik kasb etib, mustaqil nazariy yondashuv sifatida o'z yechimini topa boshladi. G'arb lingvistik maktablari vakillari orasida ushbu yo'nalishga qiziqish XX asrning 70-yillarigacha doimiy o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Buning asosiy sababi lingvistikaning markaziy obyekti – leksik birlikning o'rganilishi uning sintagmatik birikuvchanlik xossalarisiz to'liq va mukammal bo'lmasligidir. Shu sababli so'z birikmalari muammosi deyarli barcha lingvistik yo'nalishlar vakillari tomonidan tadqiq etildi. Zamonaviy lingvistikadagi paradigmatik o'zgarishlar, xususan, antropotsentrik yondashuvning dominatsiyasi, kognitiv lingvistika tarmoqlarining (psixolingvistika, amaliy lingvistika, kompyuter lingvistikasi, lingvokulturologiya va boshqalar) jadal rivojlanishi hamda xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi interkultural kommunikatsiyaning kengayishi sintagmatika, so'z birikuvchanligi va valentlik nazariyasiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). So'z birikuvchanligi muammolarini ilk bor muntazam va nazariy asosda o'rganishga kirishgan olimlardan biri amerikalik strukturalist Leonard Bloomfield bo'lib, uning asarlari ushbu kontseptsiyaning ilmiy shakllanishida muhim o'rin tutganligini alohida qayd etish lozimdir. Bloomfield so'z birikuvini keng qamrovli tushuncha sifatida talqin qilgan va bu hodisani faqat ayrim so'z turkumlari yoki leksik toifalar bilan chegaralamaslikni tavsiya etgan. Ushbu yondashuv XX asrning dastlabki o'n yilliklarida g'arb lingvistik maktablarida sintagmatik munosabatlar va so'z birikmalari masalasiga xos bo'lgan umumiy paradigmani to'liq aks ettirgan. Bloomfield nazariyasida har qanday sintaktik konstruksiya – unsurlarning lineer (chiziqli) tartibiga ko'ra tashkil topganligi sababli so'z birikmasi sifatida qaraladi. Uning taksonomiyasiga muvofiq, tilning polileksemik birikmalari (ikkidan ortiq leksik birlikdan iborat tuzilmalar) quyidagi ikki asosiy sinfga ajratiladi: 1) endotsentrik; 2) ekzotsentrik [1].

Bloomfield nazariyasida endotsentrik birikma deb, tarkibidagi bir unsurning (odatda, bosh unsurning) butun birikma o'rnida boshqa yirikroq sintaktik kontekstda qo'llana oladigan ko'p unsurlik tuzilmalar ataladi. Ya'ni, birikmaning asosiy leksik-semantik yukini bir unsurning zimmasiga yuklovchi konstruksiyalar endotsentrik sifatida baholanadi. Bunda bosh unsur (birikmaning markaziy semantik mundarijasini belgilovchi komponent) birikmaning sintaktik turkumini ham aniqlab beradi. Masalan, *keng maktab* birikmasi otli birikma sifatida tasniflanishi bosh unsur – *maktab* so'zining ot turkumiga mansubligiga bog'liqdir. Ushbu birikmadagi *maktab* so'zining butun birikma semantikasini ifodalash qobiliyati matnning keyingi qismlarida uning *keng maktab* ma'nosida yakkalanib qo'llanilishi bilan tasdiqlanadi. Xuddi shunday, *kitob o'qimoq* birikmasi fe'lli birikma hisoblanib *o'qimoq* unsuri matn davomida butun birikmani substitutsiya qila olganligi sababli endotsentrik deb qaraladi. Bloomfield bu pozitsiyani ingliz tilidagi *poor John (kambag'al Djon)* birikmasi misolida ham tasdiqlaydi va uni endotsentrik konstruksiya sifatida tavsiflaydi, chunki *John* unsuri boshqa sintaktik kontekstda butun birikmani almashtira oladi: *Poor John ran away – John ran away* (*kambag'al Djon qochib ketdi – Djon qochib ketdi*). Shu bilan birga, Bloomfield teng koordinativ munosabatdagi birikmalarni (masalan, *Tom and Mary*) ham endotsentrik guruhga kiritadi. Buni u birikmani tashkil etuvchi har qanday unsurining boshqa katta sintaktik birlikda butun birikmani substitutsiya qila olishi bilan asoslaydi: *Tom and Mary read the book* (*Tom va Meri kitob o'qidilar*) – *Tom reads the book* (*Tom kitob o'qidi*); *Mary reads the book* (*Meri kitob o'qidi*). Bu misolda ikki shaxs nomi birikmasining matn davomida bitta shaxs nomi bilan almashtirilishi, Bloomfield nazarida, endotsentrik tasnif uchun yetarli asosdir. Fe'ldagi shaxs-son kategoriyasining ko'plikdan birlikka o'tishi (read → reads) esa birikmaning endotsentrik xususiyatini o'zgartiradigan darajada muhim omil deb hisoblanmaydi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bloomfield nazariyasida ekzotsentrik birikma deb, tarkibidagi hech bir komponent yuqori darajali sintaktik kontekstda butun birikmani substitutsiya qila olmaydigan polileksemik tuzilmalar ataladi. Masalan, *John ran* (*Jon yugurdi*) yoki *beside John* (*Jonning yonida*) konstruksiyalari shu turga oiddir. Olim so'z birikmalarini endotsentrik va ekzotsentrik guruhlara bo'lishda, asosan, ularning kengroq sintaktik birliklardagi funksional statusi va semantik ekvivalentligiga tayanadi, ichki strukturasini esa asosiy mezon sifatida qabul qilmaydi. Shu sababli ichki tuzilish jihatidan farqli bo'lishiga qaramay, *poor John* subordinativ, *Tom and Mary* koordinativ munosabatli), yuqori sintaktik darajada bir xil substitutsiya imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun har ikkala birikma endotsentrik sinfga kiritiladi. Ushbu farqni anglagan Bloomfield keyingi tasniflarida endotsentrik birikmalarni o'z ichida ikki kichik turga ajratgan: subordinativ (masalan, *poor John*) va koordinativ (masalan, *Tom and Mary*).

Ekzotsentrik birikmalarning ichki tasnifida predikativ (fe'l markazli kesimli, masalan, *Tom reads the book*) va prepozitsional (ko'makchi markazli, masalan, *beside John*) turlari ajratib ko'rsatiladi. Biroq, bu ichki bo'linishning yetarlicha tizimli emasligini ta'kidlash lozim, chunki predikativ birikmalar sintaktik bog'lanishlar asosida, prepozitsional birikmalar esa morfologik ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Bloomfieldning izdoshlari ushbu klassifikatsiyani yanada rivojlantirib, olim tomonidan qamrab olinmagan qo'shimcha so'z birikmasi tiplarini tizimga integratsiya qilganlar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xorijiy lingvistikada so'z birikuvchanligi fenomenini ifodalovchi yagona terminologik tizimning mavjud emasligi ushbu sohaning muhim xususiyatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Garchi *phrase* atamasi eng keng qo'llanilgan termin bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi barcha tadqiqotchilar undan bir xilda foydalanmagan. XVII–XIX asrlarda *phrase* so'z birikmasini bildiruvchi asosiy atama sifatida faol ishlatilgan bo'lsa, XX asrda ingliz lingvisti G.Sweet uning polisemantik tabiati (ko'p ma'noliligi) sababli terminologik aniqligini yo'qotganligini ta'kidlagan [3;18–19-b.]. Natijada XX asrning dastlabki o'n yilliklaridan boshlab *phrase* atamasi deyarli chetlashtirilib, o'rniga *word group, word cluster* kabi alternativ terminlar keng tarqaldi. Ushbu atamalar hammasi so'z birikuvchanligi konsepsiyasini ifodalashga xizmat qilgan. Shunga qaramay, L.Bloomfield o'zining yangi nazariy yondashuvida *phrase* atamasini qayta tiklab, uning oldingi terminologik mavqeini qaytargan. Rus lingvistlari nuqtai nazarida *phrase* atamasi, asosan, amerika lingvistik traditsiyasiga xos bo'lib, ingliz olimlari esa bu hodisani ifodalashda *word group* terminini afzal ko'rishadi. Bloomfield, shuningdek, endotsentrik birikmalarda yuqori darajali sintaktik kontekstda butun birikmani substitutsiya qiluvchi unsurni maxsus nomlagan: subordinativ endotsentrik birikmalarda bu unsur *head* yoki *centre* deb atalgan, koordinativ endotsentrik birikmalarda esa faqat «centre» termini qo'llanilgan. Bu borada S.Chatmanning quyidagi qayd etishi o'rinlidir: *"all heads are centres, but not all centres are heads"* (barcha bosh unsurlar markazdir, lekin hamma markazlar bosh unsur emas).

Xorijiy lingvistikada so'z birikuvchanligini tasniflashning keyingi bosqichlari haqida batafsil to'xtalmasdan, faqat eng muhim yondashuvlarni qayd etish o'rinlidir. Bu borada amerikalik lingvist Ch.Xokketning endotsentrik birikmalarni ichki turlarga ajratishga oid ishlari alohida ahamiyatga ega. Hockettning ushbu tasnifi birikma yadrosi (asosiy unsuri) qolgan komponentlarga nisbatan pozitsiyasiga asoslanadi:

1) yadro birikma oxirida joylashadi – new *books (yangi kitoblar);*

2) yadro birikma boshida joylashadi – *experiment* perilous (*xavfli tajriba*);

3) yadro birikma o'rtasida joylashadi – as *good* as that (*shunchalik xavfli*);

4) yadro birikmaning har ikki chetida joylashadi – *did* not *go* [4;186-b.] *(bormadi).*

5) Bloomfield tomonidan taklif etilgan tasnifga kiritilgan keyingi o'zgartirishlar, asosan, so'z birikmalarining ichki bog'lanish xususiyatlariga, xususan, olim tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmagan erkinroq aloqalarga qaratildi. Tadqiqotlar natijasida bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan, unsurlari orasida nisbatan erkin sintaktik munosabat mavjud bo'lgan guruhlar ham so'z birikmasi sifatida qabul qilina boshladi. Bunday birikmalar parataktik munosabatlarga asoslanganligi sababli parataksis (παράταξις, *parátaxis* – "yonma-yon tizilish") [5] deb ataladi.

Parataksis murakkab sintaktik tuzilmalar qurilish usullaridan biri bo'lib, unda tarkibiy sodda gaplarni birlashtirishda maxsus bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi unsurlar ishtirok etmaydi (masalan, "Ha, marhamat" tipidagi juftliklar). Aksincha, bog'lovchi vositalar mavjud bo'lib, sodda gaplar orasidagi sintaktik bog'lanish aniq namoyon bo'lgan murakkab gaplar gipotaktik munosabatga asoslangan deb baholanadi. Gipotaksis (qad.grek. ὑπο- "ost"+τάξις "joylashish") [6] murakkab qo'shma gapning yana bir qurilish turi sifatida, tarkibiy qismlarni bog'lovchilar orqali subordinativ bog'lashni nazarda tutadi.

Parataksis va gipotaksis tushunchalarining tasnif tizimiga integratsiyasi so'z birikuvlarini klassifikatsiya qilishning klassik Bloomfield sxemasida muayyan modifikatsiyalarga olib keldi. Dastlabki darajada tilning barcha so'z birikmalari (keng ma'noda) ikki fundamental kategoriyaga bo'linadi:

1) gipotaktik bog'lanishlarga asoslangan birikmalar;

2) parataktik bog'lanishlarga asoslangan birikmalar.

Gipotaktik birikmalarning keyingi tasnifi Bloomfield yondashuviga zid emas holda endotsentrik va ekzotsentrik turlarga bo'linishni saqlab qoladi. Uchinchi darajada endotsentrik birikmalar o'z ichida koordinativ (teng darajali komponentlardan tuzilgan) va subordinativ (tobelik munosabatidagi komponentlardan tuzilgan) sinflarga ajratiladi. Ekzotsentrik birikmalar esa avval qayd etilganidek, predikativ va prepozitsional (ko'makchi markazli) turlarga taqsimlanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumiy jihatdan qaraganda, g'arb lingvistikasida so'z birikmalarini tasnif etishning har xil bosqichlarida universal yagona mezonning mavjud emas-

ligi tizimning mantiqiy izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, birinchi darajada (gipotaksis va parataksis) sintaktik strukturadagi ichki bog'lanish mexanizmi asosiy kriteriy sifatida qabul qilinsa, ikkinchi darajada (endotsentrik va ekzotsentrik) birikma komponentlari va ularning leksik-semantik yukining matn kontekstidagi funksional mavqeyi mezon hisoblanadi. Uchinchi darajada endotsentrik birikmalarni ajratishda unsurlarning koordinativ yoki subordinativ aloqasi asos qilib olingan bo'lsa, ekzotsentrik birikmalarda tasnif sintaktik-morfologik xususiyatlarga – predikativlik yoki prepozitsionallikka – bog'liq holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). https: // lawbooks.news/grammatika_948/203-uchenie-slovosochetanii-zarubejnoy-53013.html
(2). Блумфилд Л. Язык. Москва, "Прогресс", 1968, 606 с.
(3). Sweet H. A New English Grammar, Logical and Historical, p.II, Oxford, 1930, p. 18–19.
(4). Hockett Ch. A Course in Modern Linguistics, N-Y., "Macmillan", 1958, p.186.
(5). https://ru.wikipedia.org/wiki/ Parataksis.
(6). https://ru.wikipedia.org/wiki/ Gipotaksis.

Ibragimov Javlon Yormatovich (Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori)

O'ZBEK TILINI AMALIY TADQIQ QILISH ZARURATI O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI KESIMIDA

Annotatsiya. *Davr o'zbek tilshunosligi oldiga o'zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo'llanish doirasini kengaytirish muammolari bilan shug'ullanishga jiddiy kirishish vazifasini qo'ymoqda. Bu yangi asr tilshunosligi zimmasiga yuklatilayotgan ijtimoiy buyurtma.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, o'zbek tili, buyurtma, davr, ijtimoiy amaliyot.*

Ибрагимов Жавлон Ёрматович (Университет информационных технологий и менеджмента доцент, доктор филологических наук)

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРАКТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В РАЗРЕЗЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация. *Период ставит перед узбекской лингвистикой задачу всерьез заняться проблемами повышения эффективности практического использования узбекского языка, расширения сферы его применения. Это социальный порядок, который возлагается на лингвистику нового времени.*

Ключевые слова: *лингвистика, узбекский язык, порядок, период, социальная практика.*

Ibragimov Javlon Yormatovich (University of Information Technology and Management Associate Professor, Doctor of Philology)

NEED FOR PRACTICAL STUDY OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *The period sets the Uzbek linguistics the task of seriously dealing with the problems of increasing the effectiveness of the practical use of the Uzbek language, expanding the scope of its application. This is a social order that is imposed on the linguistics of the new time.*

Keywords: *Linguistics, Uzbek language, order, period, social practice.*

Kirish (Introduction). Tilshunoslik fani XIX asrda mustaqil fan sifatida shakllanib, davr talablariga o'z muammolari doirasida javob bera boshlagan bo'lsa-da, undan avvalgi davrlarda boshqa fanlar tarkibida mavjud bo'lib, jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarini qabul qilib, ularni amalga oshirish bilan shug'ullangan edi.

X–XI asrlar o'zbek xalqi tarixida o'ziga xos taraqqiyot tendensiyalari bilan ajralib turadi. X asrning birinchi yarmida Yettisuv va Qo'shg'ar mintaqalarida yashovchi qarluq, chig'il va yag'mo qabilalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar quyidagicha namoyon bo'ldi: ko'chmanchi turmush tarzi o'troq hayotga aylandi, o'troqlashuv dehqonchilikning kuchayishiga olib keldi, bu esa, o'z navbatida, shaharlarning vujudga kelishiga va savdo-sotiq faoliyatining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, ushbu hududdan o'tgan qadimiy karvon savdo yo'lining mavjudligi ishlab chiqarish va tijoratning yuksalishiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Iqtisodiy o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyot bilan parallel ravishda kechdi. O'troqlashuv natijasida dehqonchilikning yangi sifat bosqichiga o'tishi feodal yer egaligi tizimining har tomonlama rivojlanishiga turtki berdi. Mulkiy va sinfiy tabaqalanish jarayonlari kuchaydi. Xulosa qilib aytganda, "murakkab ichki jarayonlar, feodal dehqonchilik dunyosi va karvon yo'lidagi boy savdo-hunarmandchilik shaharlarining bevosita ta'siri chorvador turk qabilalarining